

Quvondiqova O'g'ilshod Dilmurod qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Tibbiyot fakulteti “Davolash ishi” yo’nalishi
24/14 guruh talabasi

Shodiyeva Nodira Normamatovna.

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Pedagogika va texnologik ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Email: shodiyevan22@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola psixologiyada bilish jarayonlarining mohiyati, turlari va ularning inson hayotidagi ahamiyatini keng yoritadi. Bilish jarayonlari inson ongining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular orqali atrof-muhit haqidagi ma’lumotlar qabul qilinadi, qayta ishlanadi va saqlanadi. Ushbu jarayonlar idrok, xotira, tafakkur, diqqat, nutq va tasavvur kabi tarkibiy qismlarga bo‘linadi. Maqolada bilish jarayonlarining har biri ilmiy nuqtayi nazardan izohlab beriladi. Xususan, idrok orqali inson tashqi dunyoni anglaydi, xotira esa axborotni uzoq yoki qisqa muddatga saqlash va qayta tiklash imkonini beradi. Tafakkur fikrlash faoliyatini boshqaradi, diqqat esa ongni muayyan ob’ektga jamlashga yordam beradi. Ushbu maqola psixologiya sohasi bilan qiziquvchilar, pedagoglar va inson tafakkuri hamda bilish jarayonlarining ishlash mexanizmini chuqurroq tushunishni istaganlar uchun foydali bo‘ladi.

Аннотация: В данной статье широко рассматриваются сущность, типы и значение когнитивных процессов в психологии. Когнитивные процессы являются важной составляющей человеческого разума, посредством которой информация об окружающей среде принимается, обрабатывается и хранится. Эти процессы делятся на такие компоненты, как восприятие, память, мышление, внимание, речь и воображение. В статье каждый из когнитивных процессов объясняется с научной точки зрения. В частности, посредством восприятия человек воспринимает окружающий мир, а память позволяет ему хранить и восстанавливать информацию в течение длительного или короткого периода времени. Мышление контролирует мыслительную деятельность, а внимание помогает сосредоточить ум на конкретном объекте. Данная статья будет полезна тем, кто интересуется областью психологии, педагогам и тем, кто хочет глубже понять механизм человеческого мышления и когнитивных процессов.

Abstract: This article broadly covers the essence, types and importance of cognitive processes in psychology. Cognitive processes are an important component of the human

mind, through which information about the environment is received, processed and stored. These processes are divided into components such as perception, memory, thinking, attention, speech and imagination. The article explains each of the cognitive processes from a scientific point of view. In particular, through perception, a person perceives the outside world, while memory allows him to store and restore information for a long or short period of time. Thinking controls thinking activity, and attention helps to focus the mind on a specific object. This article will be useful for those interested in the field of psychology, educators and those who want to understand the mechanism of human thinking and cognitive processes in more depth.

Kalit soʻzlar: Bilish jarayonlari, psixologiya, idrok, xotira, tafakkur, nutq, diqqat, pedagoglar, omil.

Ключевые слова: Когнитивные процессы, психология, восприятие, память, мышление, речь, внимание, педагоги, фактор.

Keywords: Cognitive processes, psychology, perception, memory, thinking, speech, attention, educators, factor.

KIRISH. Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof-muhitni, oʻzimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni oʻrganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga boʻlib oʻrgana boshlaganlar. Bu jarayonlar — sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bogliqki, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning oʻzi qiyin. Masalan, koʻrib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay koʻringchi, uning mohiyatini bilasizmi? Diqqat bilan koʻrgan yoki oʻqigan tekstingizni eslab qolasiz. Yoki biror narsa toʻgrisida fikrlash uchun bizga bir vaqtda ham ilgarigi idrok obrazlari ham eslab qolish, ham ichki nutqimiz, irodamiz va diqqat kerak boʻladi. Xattoki, tasodifan qoʻlimizga kirib ketgan zirapchaga bergan reaksiyamiz ham

emotsiyalardan tashqari, oʻsha narsaning bu yerda qanday paydo boʻlganligi kabi qator tafakkur jarayonlarini keltirib chiqaradi. Murakkab kompyuter texnikasi chiqqandan keyin odamning oʻz psixik jarayonlariga qiziqishi yanada ortdi. Endi maʼlumotlarni qabul qilish (anʼanaviy idrok deb ataluvchi jarayonga oʻxshash), ularni qayta ishlash (tafakkurga oʻxshash) va uni saqlash (xotira) haqida koʻp gapiradigan boʻlib qoldik. Lekin bu insondagi tabiiy jonli jarayonlar ahamiyati va tarbiyasi masalasini yanada yuqori koʻtardi. Psixologiya sohasida eksperimental ishlarning muvaffiqiyatli amalga oshirilishi aslida inson psixikasi kompyuterdan koʻra murakkabligi va odam anglagan maʼlumotlaridan koʻproq narsalarni idrok qilib, qabul qilishini isbotladi. Masalan, maxsus asboblardan yordamida aslida odam koʻrmayotgan, his qilmayotgan juda kuchsiz signallar ham fiziologik reaksiyalarni keltirib chiqarayotganligi qayd etildi. Masalan, shu

narsa aniqlanganki, odam kino ko‘rayotganda bir sekundda 24 kadrni idrok qiladi va biror tasvir ko‘z o‘ngida gavdalanadi.

Bilish jarayonlari — idrok, sezgilar, xotira, diqqat, tafakkur, iroda va hissiyotlarning inson hayoti va professional o‘shidagi roliga to‘xtab o‘tamiz. Bu jarayonlar insonga juda yaqin va tanish. Chunki har birimiz ongimiz borligini, atrofdagi narsalar va xodisalarning ayrim alohida hamda yaxlit xususiyatlarini bilamiz. Bu narsa va xodisalar bizda har bir alohida sharoitda o‘ziga xos hissiy-kechinmalarni keltirib chiqarishini ham bilamiz. Masalan, qorningiz och qolganda, yemishga bo‘lgan talabingizni haqiqatan bor yoki yo‘qligini birovlardan so‘ramaysiz-ku? Yoki kitob mutoala qilayotgan shaxs shu kitobni rost bilan ham o‘zi o‘qiyotganligini boshqalardan so‘ramaydi. Bunday ishlar o‘z-o‘zidan tabiiy jarayonlarday kechaveradi. Faqat imtihon paytida kecha kechasi bilan mutoala qilib, o‘rganib chiqqan materialni nega hozir domla oldida eslay olmayotganligingiz sizni ko‘proq qiziqtiradi va siz “Xotiram ustida ishlashim kerak” degan xulosaga kelasiz.

Darhaqiqat, bilish jarayonlari ham ma‘lum ma‘noda boshqariladigan jarayonlar bo‘lib, agar siz o‘z imkoniyatlaringizni kengaytirish yoki iqtidor darajangizni orttirmoqchi bo‘lsangiz, bu jarayonlarga oid ma‘lum qoidalar va xususiyatlarni bilib olishingiz kerak. Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrofmuhitni, o‘zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o‘rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo‘lib o‘rgana boshlaganlar. Bu jarayonlar — sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bogliqki, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o‘zi qiyin. Masalan, ko‘rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko‘ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? Diqqat bilan ko‘rgan yoki o‘qigan tekstingizni eslab qolasiz. Yoki biror narsa to‘grisida fikrlash uchun bizga bir vaqtda ham ilgarigi idrok obrazlari, ham eslab qolish mahoratimiz, ham ichki nutqimiz, irodamiz va diqqat kerak bo‘ladi. Xattoki, tasodifan qo‘limizga kirib ketgan zirapchaga bergan reaksiyamiz ham emotsiyalardan tashqari, o‘sha narsaning bu yerda qanday paydo bo‘lganligi kabi qator tafakkur jarayonlarini keltirib chiqaradi.

Murakkab kompyuter texnikasi chiqqandan keyin odamning o‘z psixik jarayonlariga qiziqishi yanada ortdi. Endi ma‘lumotlarni qabul qilish (an‘anaviy idrok deb ataluvchi jarayonga o‘hshash), ularni qayta ishlash (tafakkurga o‘xshash) va uni saqlash (xotira) haqida ko‘p gapiradigan bo‘lib qoldik. Lekin bu insondagi tabiiy jonli jarayonlar ahamiyati va tarbiyasi masalasini yanada yuqori ko‘tardi. Psixologiya sohasida eksperimental ishlarning muvaffiqiyatli amalga oshirilishi aslida inson psixikasi kompyuterdan ko‘ra murakkabligi va odam anglagan ma‘lumotlaridan ko‘proq narsalarni idrok qilib, qabul qilishini isbotladi. Masalan, maxsus asboblarda yordamida aslida odam

ko'rmayotgan, his qilmayotgan juda kuchsiz signallar ham fiziologik reaksiyalarni keltirib chiqarayotganligi qayd etildi. Masalan, shu narsa aniqlanganki, odam kino ko'rayotganda bir sekundda 24 kadrni idrok qiladi va biror tasvir ko'z o'ngida gavdalanadi. Psixologlar shunday eksperiment qilishdi: kunlarning birida o'ziga xos tasvir namoyon etildi. 24 ta kadr o'rniga 25 kadr berib, o'sha 25-kadrdan "Koka-kola iching" degan yozuv berildi. Tabiiy, oddiy idrok bu bitta kadrni ilg'amaydi. Lekin kinoteatr bufetida ushbu ichimlikni ichish kadrdan keyin 18 foizga oshgan. Demak, aslida ong bu ma'lumotni qabul qilgan, lekin real anglash, oydinlashuv ro'y bermagan ekan. Analogik xolat xotiramizda ham tez-tez ro'y beradi. Kimnidir uchratib qolamizda, o'ylanamiz: qayerda ko'rgan ekanman? hech eslolmaysiz, lekin yuzi, ko'zi va boshqa sifatleri tanishday. Buni ham shunday izohlash lozimki, odam ko'rgan-kechirganlari aslida miyada saqlanadi, biz ong sohasiga ayrimlarinigina chiqara olamiz.

Murakkab bilish arayonlari, insonning turli omillar va vositalar ordamida bilimlarni egallash va tushunish arayonidir. Ushbu jarayonlar kognitiv psixologiyada o'rganiladi va asosan diqqat, xotira, tushunish, qaror qabul qilish, va masala yechish kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Masalan, diqqat insonga o'ziga kerakli ma'lumotni ajratib olishga yordam beradi, xotira esa bunga asos yaratadi. Ushbu jarayonlar birgalikda insonning ma'lumotlarni tahlil qilib, ulardan xulosalar chiqarishiga imkon beradi. 1970-yilda otkazilgan tadqiqotlar murakkab bilish jarayonlari asosida nihoyatda samarali oquv metodikasi yaratish mumkinligini ko'rsatgan. Kognitiv jarayonlar inson ongining faolivatlari bo'lib ular bilim olish, tushunish, esda saalash va fikrlashni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar orasida idrok, diqqat, xotira, tafakkur va til muhim o'rin tutadi. Masalan, diqqat muayyan ma'lumotni tanlash va unga yo'nalish uchun zarur bo'lsa, xotira bu ma'lumotni saqlaydi va kerak bo'lganda qaytaradi. Tafakkur orqali biz muammolarni hal qilamiz va garorlar qabul qilamiz. Ushbu jarayonlar bir-birini to'ldiradi va o'zaro aloqada bo'lib, insonning samarali o'rganish va faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Kognitiv jarayonlarning uyg'unligi ta'lim va muloqotda muhim ahamiyatga ega.

E'tibor murakkab bilishda muhim rol o'vnavdi. Insonning e'tibor garatish qobiliyati bilimlarni tushunish va qayta ishlash jarayonida asosiy omillardir. Masalan, biror mavzuni chuqur organishda e'tiborning 70-80% samaradorlikni ta'minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, e'tibor darajasi oshganda, o'quv materiallari bilan ishlash 2-3 baravar samaraliroq bo'ladi. E'tiborning pastligi esa xatolar sonini 15-25% ga oshirishi mumkin, bu esa bilimlarni yetarli darajada o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, diqqatni jamlash va e'tibor qaratish qobiliyatini rivojlantirish mashg'ulotlari murakkab bilishda kattaroq samaraga erishishga yordam beradi.

XULOSA

Bilish jarayonlari insonning atrof-muhitni tushunishi, axborotni qayta ishlashi va o'z

tajribasi asosida qaror qabul qilishi uchun asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu jarayonlar inson tafakkurining murakkab jihatlarini qamrab olib, idrok, xotira, tafakkur, diqqat, nutq va tasavvur kabi muhim tarkibiy qismlardan iboratdir. Idrok orqali inson tashqi olam haqidagi ma'lumotlarni qabul qiladi va tahlil qiladi, xotira esa ushbu axborotni saqlash va keyinchalik qayta tiklash imkonini beradi. Tafakkur yangi bilimlarni yaratish va muammolarni hal etish jarayonlarini boshqaradi, diqqat esa ma'lum bir vazifaga e'tiborni jamlashni ta'minlaydi. Nutq esa insonlarning bir-biri bilan axborot almashish vositasi bo'lib, muloqot jarayonida bilish faoliyatining samaradorligini oshiradi. Tasavvur esa insonning kreativ fikrlashi va yangi g'oyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bilish jarayonlarining rivojlanishiga turli omillar ta'sir qiladi. Biologik omillar inson miyasi va nerv tizimi faoliyati bilan bog'liq bo'lsa, ijtimoiy omillar jamiyat va madaniyatning inson tafakkuriga ta'sirini o'z ichiga oladi. Shuningdek, psixologik omillar ham bilish jarayonlarining sifati va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, stress, motivatsiya va shaxsiy tajriba bilish jarayonlarining samaradorligini oshirishi yoki pasaytirishi mumkin. Bilish jarayonlarining buzilishi turli xil psixologik va nevrologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, xotira zaifligi, e'tiborsizlik, tafakkurning sustligi yoki idrokning noto'g'ri ishlashi insonning hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun turli usullar, jumladan, psixologik treninglar, aqliy mashqlar va terapiya usullari qo'llaniladi. Xulosa qilib aytganda, bilish jarayonlari inson tafakkuri va ongining ajralmas qismi bo'lib, ular orqali inson bilim oladi, tajriba to'playdi va rivojlanadi. Bu jarayonlarning samarali ishlashi nafaqat shaxsiy hayot, balki kasbiy faoliyat hamda jamiyatdagi muvaffaqiyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bilish jarayonlarini chuqur o'rganish va ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan usullarni qo'llash har bir inson uchun foydali bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Umumiy psixologiya" P.I.Ivanov, M.E.Zufarova O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2021.
2. "Umumiy psixologiya" F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova Toshkent – 2009.
3. "Umumiy psixologiya" E.G'.G'oziyev Toshkent – 2020. 5. "Kichik maktab yoshidagi bolalarda aqliy taraqqiyotning namoyon bo'lishi.
4. Sharipova, N. (2023). PHONETICS: UNLOCKING THE SOUNDS OF LANGUAGE. В ZDIT (Т.2, Выпуск 27, сс. 22–24). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10321056>
5. Sharipova Nodira Shavkat Qizi, (2024). TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS USING CLIL METHOD IN CLASS. International Journal of Pedagogics, 4(06), 161–164.

<https://doi.org/10.37547/ijp/Volume04Issue06-29>

6. Abdurasulov, J. (2024). PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF MILITARY PATRIOTIC EDUCATION IN GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS. В INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (Т. 4, Выпуск 7, сс. 38–40). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12721051>
7. Abdurasulov J. (2024). HARBIY PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI. Молодые ученые, 2(6), 48–52. извлечено от <https://inacademy.uz/index.php/yo/article/view/28164>